



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.3060/4540)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 1

Published: 06.01.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Nizamov Komil Burxonitdinovich

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Iqtisodiyot fakultiteti., Mester of Buzness Administrasion MBA mutaxassisligi magistranti

Uzbekistan

mk_taminot@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda Namangan viloyatidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Qayd etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyatining tahlili orqali ularning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlaridagi mavjud muammolar aniqlanib, samarali boshqaruv usullarining qo'llanilishi zarurati ko'rsatilgan. Shuningdek, zamonaviy menejment texnikalari va innovatsion boshqaruv tizimlarining o'rnatilishi orqali korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlari muvaffaqiyatli qilingan. Ishda Namangan viloyatidagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy o'sishiga, raqobatbardoshlikni oshirishga va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan boshqaruv strategiyalari ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqot natijalari, viloyatdagi qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va uning iqtisodiy ahamiyatini mustahkamlash uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit soʻzlar: boshqaruv samaradorligi, qurilish materiallari, sanoat korxonalari, iqtisodiy oʻsish, resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlik, innovatsiya, ishlab chiqarish jarayoni, strategik rejalashtirish, ishlab chiqarish sanoati.

Аннотация: В данной научной работе рассматриваются вопросы повышения эффективности управления предприятиями по производству строительных материалов в Наманганской области. Анализ экономической деятельности этих предприятий выявил существующие проблемы в их производственных и управленческих процессах, что подчеркивает необходимость применения эффективных методов управления. Также обсуждается внедрение современных управленческих техник и инновационных систем управления для повышения эффективности работы этих предприятий. Исследование предлагает стратегии, направленные на улучшение экономического роста предприятий по производству строительных материалов в Намангане, повышение их конкурентоспособности и оптимизацию использования ресурсов. Результаты исследования содержат практические рекомендации по развитию отрасли строительных материалов в регионе и укреплению ее экономической значимости.

Ключевые слова: эффективность управления, строительные материалы, промышленные предприятия, экономический рост, оптимизация ресурсов, конкурентоспособность, инновации, производственный процесс, стратегическое планирование, производственная отрасль.

Abstract: This scientific paper explores the issues related to improving the management efficiency of construction materials manufacturing enterprises in the Namangan region. The analysis of the economic activities of the enterprises revealed existing problems in their production and management processes, highlighting the necessity of applying effective management methods. Furthermore, the introduction of modern management techniques and innovative management systems is discussed as a means to enhance the efficiency of these enterprises. The study presents strategies aimed at improving the economic growth of construction material manufacturers in Namangan, increasing their competitiveness, and optimizing resource utilization. The findings of this research provide practical recommendations for the development of the construction materials industry in the region and strengthening its economic significance.

Keywords: 1. management efficiency, construction materials, industrial enterprises, economic growth, resource optimization, competitiveness, innovation, production process, strategic planning, manufacturing industry.

Language: Uzbek

Citation: Nizamov , K. (2025). INCREASING MANAGEMENT EFFICIENCY OF BUILDING MATERIALS PRODUCTION ENTERPRISES. Universal International Scientific Journal, 2(1), 30–39.

Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1396>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14620813>

Google scholar: https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C&eq=QURILISH+MATERIALLARI+ISHLAB+CHIQRISH+KORXONALARINING+BOSHQARUV+SAMARADORLIGINI+OSHIRISH&btnG=

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda iqtisodiyotning rivojlanishi birinchi o'rinda inson resurslarining salohiyati va samaradorligiga bog'liqdir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqat yuqori malakali, chuqur bilimga ega va o'z kasbi bo'yicha yetarli ko'nikmalar bilan qurollangan shaxslargina jamiyatning eng qimmatli boyligi hisoblanadi. Shu munosabat bilan jahonda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, uning imkoniyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga moslashtirish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Jahonda globallashev sharoitida qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatida boshqaruv jarayonlarning samaradorligini oshirishda ichki imkoniyatlardan keng foydalanish, bu borada yangi usul va mexanizmlarni shakllantirish zaruriyati kuchayib bormoqda. "2023-yildan 2025-yilgacha qurilish materiallari sanoati ham ichki, ham xalqaro bozorlardagi yaxshi sharoit tufayli yaxshilanish istiqboliga ega bo'ladi"[5]. Bu borada qo'shimcha kichik tizimlar va ma'lumotlar bazalarini yaratish yo'li bilan qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasini raqamlashtirish va obyektlar qurilishida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borishni, aholi punktlarini kompleks rivojlantirish tizimini takomillashtirish, yangi qurilish materiallarini ishlab

chiqarish texnologiyalarini yaratish ishlab chiqarish texnologik zanjirida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni tadqiq etish bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham qurilish mahsulotlari bozorini rivojlantirish bo'yicha "Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish"[6] bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Ularning samarali ijro etilishini ta'minlash sohada energiya tejamkor materiallarni keng joriy etib qurilish materiallari ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, ularni ishlab chiqarishda boshqaruv samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Aynan shu yo'nalishlarda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish hamda sohada boshqaruv ta'sirini baholash asosida o'rta muddatga prognoz parametrlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasi aholi birlamchi zaruriy ehtiyojlari tarkibidagi yashash ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ushbu soha eng innovatsion o'zgarishlarga boy bo'lib, har qanday mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy va sifat jihatdan o'sishida katta o'rin tutadi. Qurilish materiallari sanoati hajmi 2023-yil boshida 1121,1 mlrd AQSh dollari [1] ni, shu jumladan, AQSh bozori hajmi 136,8

mlrd AQSh dollari [2] , Yevropada 110,0 mlrd AQSh dollari [3] , Rossiyada 15,9 mlrd AQSh dollar [4] ni tashkil etmoqda. Uning yillik o'sish sur'ati 4,9% bo'lgan holda 2028-yilda 1493,8 mlrd AQSh dollarigacha o'sishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkich dunyo mamlakatlarida sanoatning barqaror rivojlanib borishini ta'minlash maqsadida, ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish orqali mazkur tarmoq korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

MAVZUGA OID

ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIYEW)

Hozirgi kunda ayrim qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida asosiy fondlarning eskirganligi, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirishga talabning ortib borayotganligi ham ushbu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Shu bilan bir qatorda, innovatsiya faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar qurilish materiallari sanoatida progressiv o'zgarishlarni amalga oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish orqali kuchli industrial salohiyatni yaratishda asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Qurilish materiallari sanoatida ushbu yilda o'zlashtirilgan investitsiyalar salmog'i 1,3 mlrd dollarni, shundan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 680,4 mln dollarni (52 %) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2016-yilga (360,2 mln dollar) nisbatan qariyb 4

baravarga ko'p. Sohada to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (72,5 mln dollar) oqimi esa 9 baravardan oshdi. Ushbu soha bo'yicha hududlarni rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 248,6 mln dollar bo'lgan 757 ta loyiha ishga tushirildi. Bunda mablag'lar zamonaviy, energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish loyihalariga qaratildi. Jumladan, mazkur yilda 3,5 mln tonna sement, 150 ming kub metr temir-beton mahsulotlari, 1,8 mln rulon gulqog'oz (oboi), 200 ming dona sanitar-texnik buyumlar, 180 ming tonna qurilish armaturasi, 27 mln dona keramik bloklar, 35 ming kub metr gazobeton bloklari, 30 ming dona smesitel, 10 mln kv metr gipsokarton listlari, 250 ming kv metr dekorativ panellar, 10,2 ming tonna lak-bo'yoq mahsulotlari, 2,7 mln kv metr keramik plitkalar ishlab chiqarish kabi yangi quvvatlar yaratildi. Ushbu yangi ishga tushirilgan loyihalar va o'zlashtirilgan investitsiyalarning tarmoq rivoji uchun qulaylik tarafi shundaki, eng avvalo, sohaga yangi zamonaviy texnika va texnologiya kirib keladi, mahsulot turi ko'payadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi hamda energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati yuqori kompyuter texnologiyasi yordamida boshqariladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida ish unumdorligining oshishi kuzatiladi, sarfxarajatlar miqdori kamayadi.

Qurilish materillari ishlab chiqaruvchi korxonalarining samaradarligini oshirish bo'yicha D.Rikardo, M.X.Meskon,

D.J.Rechmen, H.Bouvi, M.Porter, R.Chase, E.Demming, M.Veksler, V.M.Ryfa, L.F.Vasylevich, X.S.Uerta[7] singari xorijiy olimlar ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan O.Г.Туровец, В.Н.Родионова, О.П.Страхова, Т.И.Батракова, А.В.Куценко, Т.А.Говорушко, Н.И.Климаш, М.М.Петровцы, Я.В.Светличная[8] va boshqalar qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirish o'ziga xos xususiyatlarini hamda muhim omillarini o'rganishgan. O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan Sh.N.Zaynutdinov, T.S.Ismailova, R.I.Nurimbetov, Sh.A.Dexqonov, E.B.Iskandarov, D.Yu.Matrizayeva A.T.Mirsodiqov, A.J.Metyakubov, K.S.Tashmuxeimedova, I.Rajabov, R.Rashidov, A.V.Nazarov[9] kabi olimlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Mazkur masalaning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini rivojlantirish, qurilish materillar ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlariga kam e'tibor qaratilgan. Ushbu holat mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT

METODOLOGIYASI (RESEARCH

METHODOLOGY)

Boshqarish nazariyasining dastlabki kurtaklari qadim zamonlarga borib taqalib, Yu. Sezar, A. Makedonskiy, Turkistonda esa o'rta asr davrida Amir Temur hukmronligi vaqtidan shakllana boshlagan. Dastlabki paytlarda u oddiy shaklda bo'lib, asosan harbiy tavsifga ega bo'lgan. O'sha davr menejerlari harbiy intizomni o'rnatish maqsadida insonlarni jazo bilan qo'rqitish, har qanday buyruq va farmonlarga so'zsiz itoat etish kabi usullarni qo'llaganlar. Bunday boshqaruvga mehnat resurslaridan foydalanish, ulardan iloji boricha ko'proq qo'shimcha qiymat undirishning g'oyatda samarali usuli, deb qaralgan. Amir Temur davrida markazlashgan, intizomli davlatning barpo etilganligiga ham Sohibqironning o'z qo'l ostidagilarni "qo'rquv bilan umid o'rtasida ushlab" bo'yicha boshqargani sabab bo'lgan. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr chegarasida texnika va texnologiyaning takomillashuvi, ishlab chiqarishning keskin o'sishi boshqarishni murakkablashtirib yubordi va uni maxsus bilimlarini talab etuvchi, faoliyatning maxsus sohasiga aylantirdi.

Faoliyat samaradorligini ta'minlash har qanday korxonaning asosiy vazifalaridan biridir. Zamonaviy sharoitda ushbu vazifani bajarishni boshqarish xarajatlarning o'sishiga va korxonalar daromadlarining kamayishiga yordam beradigan ko'plab tashqi hamda ichki omillarning ta'siri tufayli murakkablashadi. Qurilish materiallari

ishlab chiqarish korxonalari boshqaruvidagi salbiy omillarga qarshi kurashish uchun ishonchli usullar va vositalarga muhtojdir. Shuning uchun samaradorlikning barqaror o‘shishini ta’minlash uchun XX-asr oxirida tashkilotni boshqarishning maxsus bo‘limi - samaradorlikni boshqarish paydo bo‘ldi¹⁰. Chunki, iqtisodiyotning beqaror sharoitida har qanday korxonaga uchun samarali tamoyillar va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilarni umumlashtirib, qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini boshqaruv samaradorligini o‘z mazmuni bo‘yicha bu korxonaga faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi. Bu, xususan, korxonani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, samarali boshqaruvni tashkil etish, rejalashtirish, tahlil qilish, hisob yuritish va nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlab turish uchun tegishli usullar, boshqaruv modellari, tizimlari va dasturiy ta’minotini o‘zida mujassam etgan boshqaruvga kompleks yondashuvi ekanligini ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligini oshirish siklini bosqichlarga bo‘lishning yagona yondashuvi mavjud emas. Shu sababli, boshqaruv samaradorligini oshirish tizimi korxonaning umumiy boshqaruv tizimi bilan organik ravishda integratsiyalangan bo‘lishi kerak, chunki korxonaga faoliyatining har qanday sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita foyda

darajasiga ta’sir qiladi, bu esa o‘z navbatida asosiy manba hisoblanadi.

Namangan viloyati shahar va tumanlarining “o‘shish nuqtalari” va “drayver sohalari”ga ixtisoslashuvini hisobga olib, Pop, Chust, Yangiqo‘rg‘on tumanlarini qurilish materiallari sanoatiga ixtisoslashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-apreldagi VMQ-211-son “2022-2026- yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 3- ilovasida foydalanilgan (O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 26-iyundagi №05/15- 1318-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida 10 tumanning “o‘shish nuqtalari” va “drayver sohalari” bo‘yicha qurilish materiallari ishlab chiqarish bo‘yicha 3 ta tuman ixtisoslashtirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishidagi masalani o‘rganish uchun tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ma’lumotlarni guruhlash, tanlanma, korrelyatsion va regression tahlil, SWOT-tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Hozirgi davrda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini innovatsiya

faoliyatining natijalaridan samarali foydalanishi yangi imkoniyatlar yaratadi hamda raqobatbardoshlikka ega bo'ladi. O'z navbati bilan ishlab chiqaruvchida mehnat unumdorligi oshadi, sarf-xarajatlar kamayadi, mahsulot sotish hajmi ortadi va rejalashtirilgan foydaning kelishi kabi omillarga ega bo'ladi. Bu esa korxonani moliyaviy barqarorlikka erishishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun hozirgi rivojlanish bosqichida sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va eksport salohiyatini oshirishi uchun ularni ishlab chiqarishda innovatsion rivojlanish darajasini baholash maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot jarayonida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalaridagi innovatsion faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari borasida olib borayotgan ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni taqozo etmoqdaki, korxonalar faoliyatidagi turli vaziyatlarda innovatsion rivojlanish darajasini turli parametrlar asosida baholovchi koeffitsiyentdan foydalanish mumkin.

O'zbekistonda 2017-2022-yillarda islohotlarning natijasi o'laroq, qurilish sektori iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan jadal sur'atlarda o'sayotganligini, xususan, qishloq xo'jaligi 2017-yilda 1,2%, 2018-yilda 0,3%, 2019-yilda 3,1%, 2020-yilda 3,0%, 2021-yilda 4,0 %, 2022-yilda 3,6 %ga va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2017-yilda 5,2%, 2018-yilda 10,8%, 2019- yilda 5,0%, 2020-yilda 0,9%, 2021-yilda 8,8 %, 2022-yilda 5,2 %ga o'sgan bo'lsa, qurilish hajmi

2017-2022-yillarda mos ravishda 6,0%, 14,3%, 22,9%, 9,5%, 6,8 % va 6,6 %ga o'sgan. Mazkur tarmoqning milliy iqtisodiyot tarkibida ulushi ham yildan-yilga oshib bormoqda. Qurilish tarmog'ining YaIM tarkibidagi ulushi 2021-yilda 6,6 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 6,7 %ga yetgan. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 41,0 mingtani tashkil etib, 2017-yilga nisbatan 1,7 barobar yoki 17,1 ming birlikka oshgan. Qurilishda band bo'lganlarning soni 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 15,6 ming nafarga oshib, 1,3 mln. nafarni tashkil etmoqda va hozirgi kunda iqtisodiyotda band bo'lganlarning qariyb 10 foizi mazkur tarmoqqa to'g'ri kelmoqda. 2020-yilda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 37,3 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 45,6 trln. so'm va 2022-yilda esa 55,5 trln. so'mga yetgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, bajarilgan qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurish ishlari hajmiga (jami ko'rsatkichga nisbatan ulush 74,5%ga) to'g'ri kelmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-may 2019-yildagi Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4335-sonli qaroriga asosan Namanagan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha mavjud zaxiralarni aniqlashni amalga oshirish hamda tadqiqotlar natijasida ko'rishimiz mumkinki viloyatda

qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyatlarga ega va viloyatda o'ndan ortiq turdagi foydali qazilmalarga boyligi va tabiiy resurslar ichida qurilish materiallari xom ashyosi zaxiralari bilan ajralib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini samaradorligini boshqarish o'z mazmuni bo'yicha bu korxonalar faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi. Xususan, strategiya, xodimlarni motivatsiyalayash asosida boshqarish, operativ boshqaruv, rejalashtirish, tahlil qilish, hisob yuritish va nazorat qilish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlab turish uchun tegishli usullar, boshqaruv modellari, tizimlari va dasturiy ta'minotini o'zida mujassam etgan boshqaruvga kompleks yondashuvi ekanligini ta'kidlash lozim.

Jumladan, yuqoridagi taklif etilganlar asosida shakllangan tahlillar natijasida qurilish materiallari korxonalarida innovatsion rivojlanish bosqichiga ega bo'lish uchun quyidagi vazifalarning

bajarilishi maqsadga muvofiqdir: — qurilish materiallari sanoatidagi mavjud innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, shuningdek, yangi texnika va texnologiya, nou-xau va intellektual mulklarni sotib olishni yo'lga qo'yish; — qurilish materiallari sanoatidagi korxonalarda ilmiy tadqiqot va eksperimental bazani rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini yanada faollashtirish; — innovatsiya jarayonidagi tajriba ishlarini olib borishda unga mos keluvchi tashkilotlarga buyurtmalar berish va ularni moliyalashtirish masalalarini hal etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish; — yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etishni tezlashtirish uchun aksiya, obligatsiya va chet el investitsiyalarini yanada ko'proq jalb etish yo'llarini aniqlash. Yuqoridagi sanab o'tilgan yo'nalishlar qurilish materiallari tarmog'idagi xo'jalik subyektlarining innovatsion rivojlanishini jadallashtirishga, shuningdek, kam xarajatli ishlab chiqarish, yuqori sifatga ega bo'lish, mahsulotlar raqobatbardoshligi va korxonalarining innovatsion ishlab chiqarish samaradorligi oshishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.businessresearchinsights.com/market-reports/construction-materials-market-101796>.
2. <https://www.ibisworld.com/industry-statistics/market-size/lumber-building-material-stores-united-states/>
3. <https://www.gminsights.com/industry-analysis/europe-building-materials-market>.
4. <https://www.researchandmarkets.com/reports/5397477/construction-materials-in-russia-market>.

5. Industry Outlook 2023-2025: Construction Materials. <https://www.krungsri.com/en/research/industry/industryoutlook/construction-construction-materials/construction-materials/io/construction-materials-2023-2025>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasida to‘g‘risidagi Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.
7. 7 Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. М.: Эскмо, 2007. 960 с.;
8. Мескон М.Х. Основы менеджмента: пер. с англ. / М.Х. Мескон, М. Альберт, Ф. Хедоур. М.: Изд-во «Дело», 1998. 704 с.;
9. Rechmen D. J., Meskon M. H., Bouvi K. L., Till J. V. 1995. Sovremennyj biznes [Contemporary Business]. Moscow: Respublika.;
10. Michael Porter Competition. - М.: "Williams", 2006. - P. 608. - ISBN 5-8459-0794-2.;
11. Chase R. Production and operational management / R. Chase, N. Ekviline, R. Jacobs. – Ed. 8th - М.: Williams, 2009. - 976 p.;
12. E. Demming. Quality, productivity, competitiveness / E. Demming. - 1982. - 253 p.;
13. Veksler E. M. Quality management: teaching. manual / E. M. Veksler, V. M. Ryfa, L. F. Vasylevich; undergeneral ed. E. M. Veksler. - К.: "VD "Professional", 2008. - 320 p.;
14. Сороко В. Функционирование и развитие системы управления качеством: учеб.-метод. матер. / В. Сороко.; Уэрта де Сото Х. Социально-экономическая теория динамической эффективности. Челябинск: Социум, 2011. 37 с.
15. О.Г.Туровец. Организация производства/–М.: Экономика и финансы, 2010.–452с., В.Н.Родионова. Организация производства на предприятиях в современных условиях /– Воронеж: ВГТУ, 2015. – 212 с.;
16. О.П. Страхова. О методах организации управления / / Менеджмент в России и за рубежом. – 2016. – №5. – С. 25- 29., Т.И.Батракова. Управление эффективностью деятельности предприятия – залог успешного функционирования // Экономический анализ. 2015. Том 19. №2. С. 14.,
17. Куценко А.В. Организационноэкономический механизм управления эффективностью деятельности предприятий потребительской кооперации Украины: монография. Полтава: РОВ ПУСКУ, 2008. 87 с.,
18. Говорушко Т.А., Климаш Н.И. Управление эффективностью деятельности предприятий на основе стоимостно ориентированного подхода: монография. Киев: Логос, 2013. 78 с.,
19. Петровцы М.М. Эффективность деятельности предприятий природопользователей (по материалам предприятий Закарпатской области): автореф. дис...канд. экон. наук: 08.06.01. Ужгород, 2004. 20 с.,
20. Я.В.Светличная. Оценка и обеспечение экономической результативности функционирования дорожно-строительных предприятий: автореф. дис...канд. экон. наук: 08.07.03. Харьков, 2002. 19 с.,
21. 9Zaynutdinov SH.N., Ismailova T.S. «Ishlab chiqarish menejmenti». Darslik, Toshkent, TDIU, 2007. 485 bet.
22. Нуримбетов.Р.И. (2022). Тенденции развития отрасли строительных материалов в Узбекистане за годы независимости. Miasto Przyszłości, 24, 478-482b.;
23. Dexkanov.SH.A.. Qurilish materiallari sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaryv mexanizmi samaradorligini oshirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. ADU, 2022y.;
24. Iskandarov.E.B. O‘zbekiston qurilish sanoati korxonalarida barqaror innovatsion rivojlanishni ta‘minlash. i.f.f.d. (PhD) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. TDTU, 2022y.;
25. Matrizaeva.D.Yu. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. TDIU, 2021y.;

26. Mirsodiqov.A.T. Qurilish sohasi logistik zanjirlarida xarajatlarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. TDIU, 2022y.;
27. Metyakybov.A.J. Qurilish materiallari sanoatiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish samaradorligini oshirish. i.f.f.d. (PhD) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. TDIU, 2019y.;
28. Ташмухамедова.К.С. Повышение конкурентного потенциала предприятий промышленности строительных материалов в условиях инновационного развития. и.ф.ф.д. (PhD) ilmiy daraja olish uchun diss. Avtoreferati. TDTU, 2023y.;
29. Rajabov I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrosyrsrlar bozori myvozanati va ishlab chiqarishning samaradorligi. Dis. iqtisod fanlari doktori. T.2006y 11 b.;
30. R.Rashidov “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017 yil.; Назаров А.В. Нейросетевые алгоритмы прогнозирования и оптимизация систем / – Сб.: наука и техника, 2003. –384 с.